



# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIIY-AMALIY JURNALI

1 / 2022



## TAHRIR HAY'ATI:

### **N. SALAYEV**

Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir

### **I. ERGASHEV**

Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent – bosh muharrir o'rinbosari

### **U. MUXAMEDOV**

Toshkent shahar adliya boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari – Toshkent shahar yuridik texnikumi direktori, yuridik fanlar doktori, professor

### **S. GULYAMOV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Xalqaro xususiy huquq" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

### **O. OKYULOV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Fuqarolik huquqi" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

### **M. AXMEDSHAYEVA**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Davlat va huquq nazariyasi" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

### **U. TUXTASHEVA**

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

### **SH. SAYDULLAYEV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Ommaviy huquq" fakulteti dekani, yuridik fanlar nomzodi, professor

### **X. XAYITOV**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi "Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori

### **SH. XO'JAYEV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Intellektual mulk" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

### **D. XABIBULLAYEV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor

### **SH. ISMOILOV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Mehnat huquqi" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori

### **G. TULAGANOVA**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoyat-protsessual huquqi" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

### **N. RAXMONKULOVA**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti "Xalqaro xususiy huquq va fuqarolik huquqi fanlari" kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar doktori

### **J. NEMATOV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Ma'muriy va moliya huquqi" kafedrasida professori v.b., yuridik fanlar doktori

### **G. UZAKOVA**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Ekologiya huquqi" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar nomzodi, dotsent

### **A. MUXAMEDJANOV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Xalqaro huquq va inson huquqlari" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

### **R. KUCHKAROV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Umumta'lim fanlar va madaniyat" kafedrasida dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi

### **SH. XAYDAROV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish" kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

### **SH. ASADOV**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi "Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari" kafedrasida professori v.b., yuridik fanlar doktori

### **D. XUDOYNAZAROV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi" kafedrasida o'qituvchisi – mas'ul muharrir

#### **MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

"Yurisprudensiya" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali

"Юриспруденция" правовой научно-практический журнал

"Jurisprudence" legal scientific-practical journal

"Yurisprudensiya" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

ISSN 2181-1938

© Toshkent davlat yuridik universiteti

# MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ  
NAZARIYASI VA TARIXI.  
HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 6 YUNUSOV HAYDARALI MURATOVICH**  
Saraxsiy – islom uyg'onish davrining  
yirik huquqshunosi

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY  
HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ.  
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 15 NE'MATOV JO'RABEK NE'MATILLOYEVICH**  
O'zbekistonda ma'muriy odil sudlov  
muammolari va ma'muriy sudlar faoliyati  
samaradorligini oshirish imkoniyatlari

- 30 SUVANOV SARDOR BAXADIROVICH**  
Taraqqiyot strategiyasida belgilangan  
sud-huquq sohasiga oid maqsadlarni amalga  
oshirishning ilmiy-nazariy asoslari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.  
TADBIRKORLIK HUQUQI.  
OILA HUQUQI.  
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 38 YAKUBOVA IRODA BAHRAMOVNA**  
Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni  
"kengaytirilgan jamoaviy boshqaruv" asosida  
amalga oshirish

- 49 SAIDOV MAQSUDBEK NORBOYEVICH**  
Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ustav  
jamg'armasidagi qarzdor ulushini  
majburlashning o'ziga xos xususiyatlari

- 65 XALILOVA ZEBINISO ERKINOVNA**  
Xalqaro investitsiya huquqiy rejimida davlat  
korxonalarining roli

12.00.04 – FUQAROLIK  
PROTSESSUAL HUQUQI.  
XO‘JALIK PROTSESSUAL HUQUQI.  
HAKAMLIK JARAYONI VA  
MEDIATSIYA

- 75 ESANOVA ZAMIRA NORMUROTOVNA**  
Fuqaroning layoqati (huquq va muomala) bilan bog‘liq ishlar: nazariy tahlil va amaliy natijalar
- 84 HAQBERDIYEV ABDUMUROD  
ABDUSAIDOVICH**  
Hakamlik sudining tuzilishida hakamlik bitimi
- 95 DAVRONOV DONIYORBЕК ABDULLO O‘G‘LI**  
Xorij mamlakatlarida fuqarolik protsessual majburlov choralari

12.00.06 – TABIIY RESURSLAR  
HUQUQI. AGRAR HUQUQ.  
EKOLOGIK HUQUQ

- 105 MAHKAMOV DURBEK NE‘MATOVICH**  
O‘simlik dunyosiga oid qonunchilikda ekologik va mulkiy munosabatlar tahlili

12.00.07 – SUD HOKIMIYATI.  
PROKUROR NAZORATI.  
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH  
FAOLIYATINI TASHKIL ETISH.  
ADVOKATURA

- 114 IBRAGIMOV DIYORBЕК SHUHRAT O‘G‘LI**  
Voyaga yetmaganlar sohasida qonuniylikni ta‘minlashda prokuror nazorati va idoraviy nazorat o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni takomillashtirish masalalari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI,  
HUQUQBUZARLIKLARNING  
OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA.  
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 123 ФАЗИЛОВ ФАРХОД МАРАТОВИЧ**  
Вопросы анализа социально-правовых факторов легализации преступных доходов

**134 ISLOMOV BUNĒD OCHIOVICH**

Обстоятельства, смягчающие наказание и  
исключающие преступность деяния по  
уголовному законодательству Французской  
Республики (сравнительный анализ)

**149 BOYDEDAYEV SADIRDIN  
ABDUSATTOROVICH**

Korrupsiya tushunchasi: tahlil va taklif

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.  
KRIMINALISTIKA,  
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA  
SUD EKSPERTIZASI

**156 БАЗАРОВА ДИЛДОРА БАХАДИРОВНА**

Ограничение права на молчание  
в уголовном судопроизводстве:  
опыт Австралии

**165 UTEPOV DAUREN PAKHATOVICH  
ZHEMPIISOV NAZARBEEK SHARUNOVICH**

Legal basis for collection and attachment of  
digital information as proof in criminal cases in  
Republic of Kazakhstan

**175 URALOV SARBON SARDOROVICH**

Sud muhokamasida isbot qilish predmeti  
sifatida preyditsiyadan foydalanish masalalari

UDC: 347.918(035.3)(575.1)

## XALQARO INVESTITSIYA HUQUQIY REJIMIDA DAVLAT KORXONALARINING ROLI

**Xalilova Zebiniso Erkinovna,**  
PhD (Bremen Universiteti, Germaniya),  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
katta o'qituvchisi  
e-mail: zkhililova@inbox.ru  
ORCID: 0000-0002-7299-1347

**Annotatsiya.** COVID-19 inqiroziga javoban hukumatlar tadbirkorlik sektorini qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Xalqaro investitsiya shartnomalari sonining ko'payishi va milliy hukumatlar liberallashtirish choralari ko'rishiga qaramay, ko'plab davlatlar xalqaro investitsiyalarni tartibga solishda ancha ehtiyotkor va cheklovchi yondashuvni afzal ko'rmoqda. Ba'zi hollarda qutqaruv paketlari moliyaviy qiyinchilikka uchragan kompaniyalarning aksiyalarini sotib olishni o'z ichiga oladi, bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyotda davlat korxonalari soni va mavjudligini oshirishi mumkin. Ayniqsa, postsotsialistik mamlakatlar iqtisodiyotida davlat korxonalari hali ham muhim rol o'ynamoqda, biroq ularning faoliyati, asosan, ichki bozorlarga qaratilgan. Qabul qiluvchi resident davlatning xorijiy davlat investitsiyalariga nisbatan tartibga solish chora-tadbirlari shartnoma bo'yicha istisnolardan foydalanish nuqtai nazaridan shaffofligi yoki shaffof emasligini muhokama qilish cheklovchi choralarning xorijiy davlat korxonalari investitsiyalarining tashkil etilishi yoki ularning tashkil etilgandan so'nggi holati bilan bog'liqligidan kelib chiqadi. Bunday cheklovchi choralar, odatda, xorijiy davlat investitsiyalarining bozorga kirishiga, ayniqsa, muhim infratuzilma va "strategik" sanoat tarmoqlariga taalluqlidir. Ushbu maqolaning maqsadi davlat korxonalarining umumiy tabiatini ko'rsatish, ularning xalqaro investitsiya huquqiy rejimidagi o'rni va ba'zi davlatlar tomonidan qabul qilingan tartibga solish choralari tahlil qilishdan iboratdir.

**Kalit so'zlar:** davlat korxonalari, xalqaro investitsiya huquqiy rejimi, davlat korxonalari investitsiyasi, cheklovchi choralar, ommaviy tartib.

### РОЛЬ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В РЕЖИМЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ИНВЕСТИЦИОННОГО ПРАВА

**Халилова Зебинисо Эркиновна,**  
доктор философии (PhD, Бременский университет, Германия),  
старший преподаватель  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В ответ на кризис COVID-19 правительства приняли широкий спектр мер по поддержке делового сектора. Несмотря на рост числа международных инвестиционных договоров и принятие мер по либерализации национальными правительствами стран мира, многие государства придерживаются более осторожного и ограничительного подхода к регулированию международных инвестиций. В некоторых случаях пакеты мер по спасению включают приобретение долей в компаниях, испытывающих финансовые затруднения, что потенциально увеличивает количество и присутствие государственных предприятий в экономике. Государственные предприятия по-прежнему играют важную роль в экономике.

особенно в постсоциалистических странах, однако их деятельность сосредоточена на внутренних рынках. Обсуждение того, оправданы ли регулирующие меры принимающей страны в отношении иностранных государственных инвестиций с точки зрения использования исключений из контрактов, проистекает из того факта, что ограничительные меры относятся к организации или пост-учреждению иностранных государственных предприятий. Такие ограничительные меры обычно применяются к выходу на рынок иностранных государственных инвестиций, особенно в критически важной инфраструктуре и отраслях, имеющих стратегическое значение. Цель данной статьи – представить анализ сущности госпредприятий и мер регулирования, принятых некоторыми странами.

**Ключевые слова:** государственные предприятия, режим международного инвестиционного права, инвестиции госпредприятий, меры регулирования, национальная безопасность.

## THE ROLE OF STATE-OWNED ENTERPRISES IN THE INTERNATIONAL INVESTMENT LAW REGIME

**Khalilova Zebiniso Erkinovna,**

Senior Lecturer of

Tashkent State University of Law, PhD (University of Bremen, Germany)

**Abstract.** In response to the COVID-19 crisis, governments have taken a wide range of measures to support the business sector. Despite the rise of international investment treaties and the adoption of liberalizing measures by national governments, many states are taking a more cautious and restrictive approach to regulate international investments. In some cases, rescue packages include the acquisition of equity stakes in companies in financial distress, potentially increasing the number and presence of State-owned enterprises in the economy. Especially, in post-socialist countries, state-owned enterprises still play an important role in the economy; however, their activities are concentrated in domestic markets. The discussion of whether the host country's regulatory measures for foreign public investment are transparent in terms of the use of exceptions to the contract stems from the fact that the restrictive measures relating to the organization or post-establishment of foreign state investments. Such restrictive measures typically apply to the entry of foreign public investment into the market, especially in critical infrastructure and "strategic" industries. The aim of this article is to present the general nature of state-owned enterprises and analyze the regulatory measures taken by some countries.

**Keywords:** state-owned enterprises, international investment law regime, state-owned enterprises investments, regulatory measures, national security.

### Kirish

BMTning savdo va rivojlanish konferensiyasi (UNCTAD)ning 2021-yilgi Jahon Investitsiya Hisobotida e'lon qilingan ma'lumotlar va statistikaga ko'ra, rivojlanayotgan Osiyo davlatlarida (Xitoy, Gonkong va Singapur) barcha kapital qo'yilmalari rivojlangan iqtisodiyotlarda, xususan, Yevropada sodir bo'lgan. Rivojlanayotgan mamlakatlarda davlatga qarashli avia tashuvchilar (Singapore Airlines, Cathay Pacific, China Eastern

va Southern aviakompaniyalari)ga kapital kiritildi. Rivojlangan mamlakatlarda ikki xil yondashuv mavjud: Amerika Qo'shma Shtatlari va Yangi Zelandiya. Bu dasturlarda kapital qo'llab-quvvatlanadigan kreditlar va konvertatsiya qilinadigan kreditlarga imtiyozlar berilgan. Yevropa davlatlari esa bir necha hollarda aksiya ulushlarini sotib olish yo'lini tanlagan.

COVID-19 inqirozi noaniq, bozor talabi past bo'lgan va davom etayotgan xususiy-

lashtirish dasturlarini sekinlashtirdi. Masalan, Braziliya va Vetnamdagi xususiylashtirish dasturlari muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Braziliya o'z xususiylashtirish dasturini 2018-yil oxirida davlat korxonalari sonini 134 tadan 12 tagacha qisqartirishni kutgan holda boshladi. 2020-yil davomida faqat ikkita xususiylashtirish yakunlandi: La Caixa sug'urta kompaniyasi (La Caixa Federal sho'ba korxonasi), Petrobras va ikkita sho'ba korxonalarining xususiylashtirilishi.

Vetnam 2016–2020-yillar oralig'ida 174 ta davlat korxonasini xususiylashtirishni ma'qulladi. Pandemiya bir qancha kompaniyalar, jumladan, MobiFone, Agribank, Northern Food, Vinacomin va Vetnam milliy kimyoviy guruhining rejalarini sezilarli darajada kechiktirdi. Umuman olganda, 2020-yilda davlat transmilliy kompaniyalari soni 2019-yilga nisbatan 7 foizga oshib, 1600 taga yaqinni tashkil etdi. COVID-19 bilan bog'liq qutqaruv dasturlariga kiritilgan kompaniyalardan tashqari, yana bir nechtasi pandemiya bilan bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra milliyashtirildi.

Yangi tashkil etilgan davlat tasarrufidagi transmilliy kompaniyalarning taxminan uchdan ikki qismi davlat pensiya jamg'armalari yoki suveren jamg'armalarning ozchilik ishtiroki tufayli kiritilgan. Qolgan transmilliy kompaniyalar esa boshqaruv tuzilmasi to'g'risidagi ma'lumotlar endigina qo'lga kiritilgan kompaniyalar hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotini shakllantirayotgan rivojlanayotgan davlatlarda, masalan, Belarusiya va Ukrainada, odatda, qo'shni davlatda (masalan, Rossiya Federatsiyasi) bitta filiali bo'lgan kichikroq kompaniyalar ham xususiylashtirilmogda. Aksariyat hollarda bu kompaniyalar yuqori darajada integratsiyalashgan bozorlar merosi bo'lib, xalqaro kapital bozorlarida faol harakatlanmaydi [1, 27-28-b.].

Shu o'rinda shuni ham ta'kidlash kerakki, COVID-19 inqirozi Markaziy Osiyoning o'tish davridagi mamlakatlari, jumladan, O'zbekiston iqtisodiyotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. O'zbekistonda nisbatan yaxshi makroiqtis-

sodiy vaziyat, 2020-yilda yalpi ichki mahsulot 1,6 foizga o'sishi va mamlakatning yangi to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish borasidagi sa'y-harakatlariga qaramay, kirib kelgan mablag'lar 26 foizga qisqarib, 1,7 milliard dollarni tashkil etdi. O'zbekiston Respublikasining 2019-yildagi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi [2], masalan, energetika sohasida va telekommunikatsiya sanoati bo'yicha yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashdi [3].

2020-yil may oyida hukumat 30 mamlakatdan 70 ta kompaniya va konsorsiumlar yashil energiya loyihalari bo'yicha takliflar kiritganini e'lon qildi. Bundan tashqari, Volkswagen Group (Germaniya) Jizzax EIZ-da investitsiya loyihasini ishga tushirdi. Biroq mamlakat dengizga chiqa olmaganligi, ya'ni faqat dengizga chiqish imkoni bo'lmagan boshqa mamlakatlar bilan o'ralganligi sababli chegaralarni yopish va mahalliy hamda qo'shni davlat hokimiyati tomonidan qabul qilingan boshqa cheklovchi choralar iqtisodiyotga ta'sir qildi va investitsiya loyihalarini kechiktirdi [4, 74-b.]. Daromadni ko'paytirishga yo'naltirilgan xususiy firmalardan farqli o'laroq, davlat korxonalari ham siyosiy, ham iqtisodiy sabablarga ko'ra harakat qiladilar, bunda davlat mulki muhim rol o'ynaydi [5, 10-b.].

### Material va metodlar

*Hormatsning fikriga ko'ra, siyosiy tabiati, ya'ni hukumat bilan yaqin aloqalari tufayli davlat korxonalari xorijiy investorlar sifatida siyosatchilar va huquqshunoslar tomonidan xususiy korxonalariga jiddiy "global raqobatchilar" [6] sifatida qaralmoqda. Bundan tashqari, Reed o'zining „Rivojlanayotgan davlatlarda korporativ boshqaruv islohotlari“ deb nomlangan maqolasida G'arb davlatlari tomonidan ommaviy tartib, korporativ boshqaruv va oshkoralik bilan bog'liq bo'lgan xorijiy davlat korxonalari bilan aloqador ba'zi xavotirlar mavjud [7, 235-b.] ekanligini ta'kidlaydi.*

G'arb davlatlarining xorijiy davlat korxonalarini bilan bog'liq xavotirlari ushbu mamlakatlar korxonalarini tartibga solish choralarini ko'rishga olib keladi. Kanada va AQSh kabi ba'zi davlatlar xorijiy davlat korxonalarini uchun to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni tekshirish metodini qo'llaydilar. Bugungi kunda ushbu metod ko'pgina davlatlar tomonidan qo'llanilmoqda. Xalqaro miqyosda AQSh "davlat kapitalizmi"ning AQSh va jahon iqtisodiyoti oldidagi muhim muammolariga javob berishda ikki tomonlama, mintaqaviy va ko'p tomonlama savdo va sarmoyaviy siyosat vositalari va metodlaridan foydalanishni taklif qildi. Jahon Savdo Tashkiloti qonunchiligida normativ bo'shliqlar va noaniqliklar hali ham mavjud bo'lishiga qaramay, u allaqachon davlat korxonalarining raqobatga qarshi faoliyati bo'yicha bir necha takliflarni taqdim etdi. Bundan tashqari, ko'payib borayotgan ikki tomonlama va mintaqaviy shartnomalar davlat korxonalarini qamrab oladi, shuningdek, davlat korxonalarini bilan bog'liq bo'lgan sohalarni o'z ichiga olishga harakat qiladi. Xususan, yangi tuzilgan Transtinchokeani hamkorligi shartnomasi (TPP) davlat korxonalarini va xususiy investorlar o'rtasida teng shart-sharoitlarni qo'llab-quvvatlash uchun davlat korxonalarini bo'yicha butun bobni o'z ichiga oladi [8]. Bu esa kelgusida ikki tomonlama shartnomalar va erkin savdo bitimlari bo'yicha muzokaralarga ta'sir qilishi mumkin.

Shuni ta'kidlash joizki, davlat korxonalarining jadal o'sishi inkor etib bo'lmaydigan haqiqatdir [9, 66-b.] va xalqaro investitsiyalarni tartibga solishning asosiy masalasi davlat mulki asosidagi investorning shartnomaviy himoyaga kiritilishi yoki chiqarib tashlanishi emas, balki rezident davlat investorlar uchun huquq himoyasini ta'minlashi va ommaviy tartibni ta'minlashda rezident davlatga tartibga solish choralarini ko'rishga ruxsat berilishi muhim hisoblanadi [10]. Uchinchi davlatlarga investitsiyalar kiritish orqali davlat korxonalarini ham xorijiy investorlarga

aylanishi mumkin. Natijada ular nodavlat subyektlar sifatida tijorat maqsadlarida yoki davlat korxonalarini ta'asischi davlat himoyasi ostida harakat qilishlari mumkin. Boshqacha qilib aytganda, ular davlatning o'zgaruvchan ta'siri ostida harakat qilsalar, ushbu holatda ular jismoniy va yuridik shaxslar uchun mavjud bo'lgan barcha shartnomaviy imtiyozlardan mahrum bo'lishlari kerak.

### **Tadqiqot natijalari**

Bugungi kunda davlat korxonalarini investitsiyalarining rezident davlatlar tomonidan xalqaro odat normalarini asos qilgan holda va ulardan himoya vositasi sifatida foydalanib, rad qilish hollari uchramoqda. Qilingan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu masalada turli xil talqinlar bo'lishiga qaramasdan, rezident davlatlar ommaviy tartib va xavfsizlik nuqtayi nazaridan xorijiy davlat korxonalarini investitsiyalariga qarshi harakatlarini xalqaro odat huquqiga muvofiq oqlashlari ushbu davlatlarga qiyinchilik tug'diradi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va Rivojlanish bo'yicha Konferensiyasi (UNCTAD)ning "Xalqaro Investitsiya Shartnomalarida milliy xavfsizlikni himoya qilish" deb nomlangan maqolalar to'plamida xalqaro odat huquqi strategik sohalarning himoyasini ta'minlashi faqat jiddiy qo'zg'olonlar yoki inson huquqlarining buzilishiga olib keladigan harakatlar sodir etilishi mumkin bo'lgan hollardagina amalga oshishi mumkin [11] ekanligi fakti o'rganilgan va muhokama qilingan.

Shunisi e'tiborga loyiqki, xavfsizlik bo'yicha muhim istisnolardan foydalanish rezident davlatni majburiyatlardan, shu jumladan, shartnomani buzganlik uchun tovon to'lashdan ozod qilishi mumkin, lekin rezident davlat xalqaro odatlarga ko'ra, zaruriy himoyani muvaffaqiyatli qo'llagan bo'lishiga qaramasdan, kompensatsiya uchun javobgarlikka tortiladi. Shu sababli rezident davlatlarga xorijiy davlat korxonalarini investitsiyalari bilan bog'liq ommaviy tartib yoki xavfsizlik masalalarini hal qilishda investitsiya shart-

nomalariga xavfsizlik bo'yicha istisnolarni kiritish tavsiya etiladi [12, 10-b.].

Ommaviy tartib va xavfsizlik ikki qirrali qilichga o'xshaydi: bir tomondan, u resident davlatlar tomonidan muhim manfaatlar va infratuzilmani himoya qilish va shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun javobgarlikni o'z zimmlariga olmagan holda, xorijiy investorlarga qarshi tartibga solish choralari o'zlarini oqlash metodi sifatida qo'llashlari mumkin. Masalaning boshqa tomoni, milliy xavfsizlikni suiiste'mol qilish xorijiy investitsiyalar uchun umidsiz va ishonchsiz muhit yaratib beradi. Bundan tashqari, investitsiyalar o'rnatilgandan keyin cheklovchi choralardan noto'g'ri foydalanish resident davlatda beqaror huquqiy rejim va xavfli investitsion muhit yaratishi mumkin [13, 106-b.].

Xorijiy davlat korxonalarini bilan bog'liq xavfsizlik masalalari ham siyosiy, ham iqtisodiy mulohazalarni o'zida aks ettiradi. Davlat korxonalariga qarshi ommaviy tartib, xavfsizlik asosida choralar ko'rishning haqiqiy sabablari ko'pincha murakkab va noaniqdir. Bugungi kunda resident davlatlar xalqaro bozorning haddan tashqari ochiqligi ommaviy tartib va xavfsizlikka tahdid tug'dirishi mumkinligi dilemmasiga duch kelmoqda va o'z navbatida, haddan tashqari cheklovchi xavfsizlik qoidalari xorijiy investorlarni tushkunlikka solmoqda. Resident davlatlar xorijiy davlat korxonalarini sarmoyadorlari va investitsiyalarini himoya qilish va davlat korxonalarini investitsiyalari bilan bog'liq masalalarda qonuniy milliy xavfsizlik muammolarini hal qilish o'rtasida to'g'ri muvozanatni saqlashlari kerak. Xavfsizlik bo'yicha istisno bandi faqat ommaviy tartib va xavfsizlik bilan bog'liq xavotirlarni bartaraf etish uchun boshqa siyosatlar mavjud bo'lmagan taqdirdagina oxirgi chora sifatida qo'llanilishi va resident davlat xorijiy investorlar va investitsiyalar uchun ochiq muhitni ta'minlashi kerak. Milliy va xalqaro amaliyot tendensiyalari o'rtasidagi nomutanosiblik shundaki, bunday

nomutanosiblik yangi voqelikdagi murakkablik va tafovutni aniq aks ettiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Xalqaro Investitsiya Bitimi rejimini liberallashtirish masalasida ham G'arb davlatlari, ham iqtisodi rivojlanayotgan davlatlar "diskriminatsiyaga qarshi munosabat" tamoyili asosida o'z firmalarining shartnoma tuzuvchi tomonlar bozorlariga kirishini kengaytirishga intilishadi va resident davlatlarni investitsion arbitraj orqali chet el investor-davlatlari uchun kirish to'siqlarini olib tashlashga undaydi. Xususan, G'arb davlatlari rivojlanayotgan mamlakatlar bozorida o'z investorlari uchun kengroq sharoitlar yaratish va mezbon davlatlarda yaxshi e'tibor qozonish uchun intiladilar [14, 12-b.]. Milliy darajadagi cheklov tendensiyasiga kelsak, ba'zan G'arb davlatlari xorijiy davlat korxonalarini sarmoyadorlari bilan raqobatlashganda, o'z firmalarining milliy va xalqaro bozorlardagi raqobatbardosh ustunliklarini yo'qotishga tayyor bo'lmasligi mumkin, lekin ular xorijiy davlat korxonalarini ommaviy tartib, xavfsizlik yoki davlat siyosati masalalari tufayli cheklashda ko'proq diqqatli harakat qiladilar. Ikkala tendensiya bir-biridan farq qilsa-da, ikkalasi ham davlatning siyosiy va iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, davlatlarning investitsiya siyosatini namoyish etadi.

Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, yaqin zamonda imzolangan investitsiya shartnomalari orqali davlat korxonalarini investitsiyalarini himoya qilish va qabul qiluvchi resident davlatlarning milliy manfaatlarini amalga oshirishlarida tartibga solish ma'konini saqlab qolish o'rtasidagi muvozanatga erishildi. Yangi avlod xalqaro investitsiya shartnomalariga ko'ra, resident-davlatlarning raqobatbardoshlik, shaffoflik, betaraflik kabi davlat korxonalarini bilan bog'liq tashvishlari "davlat siyosati", "ommaviy tartib" istisnosini qo'llash orqali hal qilinishi mumkin. Shunga qaramasdan, xalqaro arbitraj amaliyoti shuni ko'rsatadiki, arbitraj sudlari qabul

qiluvchi resident davlatning xorijiy davlat korxonalariga qarshi harakatlari har qanday moddiy himoya majburiyatlarini buzishi yoki buzmasligini hal qilishda ixtiyoriy qarorlar qabul qilishi mumkin. Arbitraj amaliyotidagi kelishmovchilik va noaniqlikni hisobga olgan holda, siyosatchilar qabul qiluvchi resident davlatlarning milliy manfaatlarini saqlab qolish va tegishli qoidalarni sharhlashda arbitraj sudlariga ko'proq yo'l-yo'riq ko'rsata olish uchun investitsiyalarni himoya qilishning muhim standartlarini yanada aniqroq ishlab chiqishlari kerak [15, 31-b.].

Xalqaro investitsiya shartnomalari tarmog'i va investor-davlat nizolarini hal qilish mexanizmi xorijiy investorlarga arbitraj sudlari oldida resident davlatlarning cheklovchi choralari e'tiroz bildirish huquqini berishi mumkin bo'lsa-da, ba'zi shartnomalar ayrim hollarda investorlar himoyasini qo'llashni cheklashi mumkin bo'lgan istisno bandlarini ham o'z ichiga oladi. Masalan, AQSh-Argentina BITning XI moddasida shunday deyiladi: "Ushbu shartnoma tomonlardan birortasining jamoat tartibini saqlash, xalqaro tinchlik yoki xavfsizlikni saqlash yoki tiklash bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan choralarni qo'llashi yoki o'zining muhim xavfsizlik manfaatlarini himoya qilishga to'sqinlik qilmaydi" [16].

Shunday qilib, ushbu istisno bandi ahdlashuvchi davlatlarga shartnomaning "jamoat (ommaviy) tartibini saqlash", "xalqaro tinchlik yoki xavfsizlikni saqlash" va "muhim xavfsizlik manfaatlarini himoya qilish" kabi maxsus maqsadlariga zid bo'lgan har qanday harakatga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun imkon beradi. Bunday istisno bandi shuni anglatadiki, agar ahdlashuvchi davlatlarning xorijiy davlat korxonalari yoki xorijiy davlat investitsiyalariga qarshi muayyan manfaatlarni himoya qilish uchun amalga oshiriladigan choralari, ushbu davlatlar tomonidan xalqaro majburiyatlarni buzmasa va buning uchun davlatlar investitsiya shartnomasi bo'yicha javobgarlikka tortilmasalar, resi-

dent davlatlar tomonidan yuqoridagi choralar ko'rilishi mumkin.

Yuqorida muhokama etilgan istisno bandining resident davlatlar uchun ruxsat etilgan maxsus maqsadlaridan tashqari, ayrim shartnomalar ahdlashuvchi tomonlarga sog'liqni saqlash [17], ommaviy axloq [18], favqulodda vaziyatlar [19], tabiiy resurslarni saqlash [20], madaniy sanoat obyektlarini himoya qilish [21], milliy iqtisodiyotni rivojlantirish [22] kabi boshqa maqsadlarni ko'zlab, qarshi choralarni amalga oshirishga imkon beradi.

Ko'pgina istisno bandlari butun investitsiya shartnomasiga [23] taalluqli bo'lsa-da, ba'zi istisnolar faqat ekspropriatsiya [24], diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik [25], nizolarni hal qilish [26], qo'llanadigan huquq [27] va boshqalarga nisbatan qo'llaniladi. Istisno bandlarining qo'llanilishi turli shartnomalarda turlicha va sezilarli darajada farq qiladi.

#### **Xulosalar**

Xulosa qilib aytganda, xorijiy davlat investitsiyalarini qabul qiluvchi rezident davlatlarda ommaviy tartib, xavfsizlik masalalarida turli muammolar vujudga kelishi mumkin. Ushbu masalalar bo'yicha istisnolarni o'z ichiga olgan xalqaro investitsiya shartnomalari asosida resident davlatlar xavfga duch kelganlarida istisno qilish bandlarining turli formulalarini tanlashlari va ulardan foydalanishlari mumkin. Masalan, ba'zi shartnomalar davlatning butunligicha ixtiyorida bo'lgan ommaviy tartib yoki xavfsizlik to'g'risidagi istisno bandi orqali keng ma'nodagi xavfsizlik istisnolarini o'z ichiga oladi; boshqa shartnomalar esa torroq yondashuvni qabul qiladi.

Bir qancha investitsion shartnomalar milliy xavfsizlik bo'yicha istisnolarni o'z ichiga olganligi sababli bunday qoidalar xalqaro investitsion shartnomalar bo'yicha kelgusida amalga oshiriladigan muzokaralarda muhim hisoblanadi, chunki milliy xavfsizlik allaqachon xorijiy investitsiyalar siyosatining muhim qismiga aylangan. Albatta, bunda davlatlar xorijiy investitsiyalarni tartibga solish va xalqaro majburiyatlardan qochish

uchun ma'lum darajadagi ixtiyoriylik va erkinlikni saqlab qolish uchun ehtiyoj sezadilar.

Bugungi kunda turlicha ataladigan xavfsizlik istisnolari ularning aniq holatlardagi talqini sababli turli oqibatlariga olib kelishi mumkin. Bir qancha xavfsizlik istisno qoidalari, masalan, "muhim xavfsizlik manfaatlari"ni nazarda tutsa, qolgan qoidalar esa "milliy xavfsizlik" yoki "jamoat xavfsizligi" atamalarini qo'llashni nazarda tutadi. Shunda bu atamalar bir xil holatlarga tegishlimi, degan savol tug'ilishi mumkin.

Bundan tashqari, ko'pgina shartnomalarda faqat "muhim xavfsizlik manfaatlari" atamasi qo'llanilganligi sababli potensial munozaralar xorijiy davlat korxonalariga nisbatan cheklov choralari tegishli istisno bandini qamrab olgan muhim xavfsizlik manfaatlari doirasiga kiradimi yoki yo'qmi, degan savol tug'ilishi mumkin. Aksariyat xalqaro investitsiya shartnomalari xavfsizlikning muhim manfaatlari haqida batafsil ma'lumot bermaydi. AQSh shartnomalari bunga misol bo'la oladi. Bunday hollarda mezbon davlatlar xorijiy davlat korxonalarini investitsiyalarini tartibga solish bo'yicha katta siyosiy ixtiyoriylikni saqlab qoladilar. AQShning ba'zi ikki tomonlama shartnomalariga yo'llanma xatlarida quyidagilar aytilgan:

[A] Tomonning asosiy xavfsizlik manfaatlari urush paytida yoki favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik bilan bog'liq harakatlarni o'z ichiga oladi. Urush holati yoki favqulodda vaziyatlardan kelib chiqmagan harakatlar ishtirok etayotgan tomonning asosiy xavfsizlik manfaatlari aniq va to'g'ridan to'g'ri aloqador bo'lishi kerak [28].

Biroq AQShning so'nggi shartnomalarida bunday bayonot yo'qligi sababli „muhim xavfsizlik“ doirasi talqin uchun ochiq qolmoqda.

Shu ma'noda qabul qiluvchi rezident davlatlar xorijiy davlat investitsiyalarini tartibga solish bo'yicha maksimal siyosat ixtiyorini saqlab qolganga o'xshaydi. Ko'pgina so'nggi

shartnoma amaliyotlari, masalan, Kanada va Yevropa Ittifoqi o'rtasida tuzilgan "Keng qamrovli iqtisodiy va savdo bitimi" (CETA), Avstraliya-Xitoy o'rtasida imzolangan ikki tomonlama erkin savdo shartnomasi (2015) [29], Xitoy-Koreya o'rtasida imzolangan ikki tomonlama erkin savdo shartnomasi (2014), Yaponiya-Urugvay ikki tomonlama shartnomasi va hokazolar shular jumlasidandir (2015).

Shunga qaramay, xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha istisnolar rezident davlatlarga xorijiy davlat investitsiyalariga qarshi choralar ko'rishga imkon bersada, rezident davlatlarning cheklovchi choralari shartnomalar bo'yicha, ularning shaffofligi yoki shaffof emasligi, o'zini oqlashi yoki oqlamasligi masalasi bugungi kunda ochiq qolmoqda.

Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalaridan quyidagi asosiy xulosalarga kelish mumkin:

– Rivojlangan davlatlardan biri hisoblangan AQSh "davlat kapitalizmi"ning AQSh va jahon iqtisodiyoti oldidagi muhim muammolariga javob berishda ikki tomonlama, mintaqaviy va ko'p tomonlama savdo va sarmoyaviy siyosat vositalaridan bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida bo'lgan va rivojlanayotgan davlatlar foydalanishlari kerak.

– Yuqorida ta'kidlanganidek, oxirgi yillarda imzolangan investitsiya shartnomalari orqali xorijiy davlat korxonalarini investitsiyalarini himoya qilish va rezident davlatlar uchun milliy manfaatlarni amalga oshirish uchun tartibga solish makonini saqlab qolish o'rtasidagi muvozanatga erishildi. Yangi avlod xalqaro investitsiya shartnomalariga ko'ra, rezident davlatlarning raqobatbardoshlik, shaffoflik, betaraflik kabi davlat korxonalarini bilan bog'liq tashvishlari "davlat siyosati", "ommaviy tartib" istisnosini qo'llash orqali hal qilinishi mumkin.

– Ko'pgina MDH davlatlari qatorida O'zbekiston ham xorijiy davlatlar bilan kelgusida olib boradigan xalqaro hamkorlik munosabatlarida va investitsiya sohasida tuzadigan ikki tomonlama investitsion shartnoma-

larida ommaviy tartib, xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha istisnolar masalasida rivojlangan davlatlar tajribasidan unumli foydalanishga shubha yo'q.

Ma'lumki, davlat tasarrufida bo'lgan mulk davlat iqtisodiy sektori faoliyatining moddiy asosini tashkil etadi. Iqtisodiyotning davlat sektori dunyoning barcha davlatlarida mavjud va iqtisodiy fenomen sifatida barcha tarixiy davrlarga va jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlariga xosdir. Hozirgi kunda davlat mulkini samarali boshqarish va undan foydalanishga doir muammolar ham iqtisodiy, ham yuridik fan nuqtai nazaridan nazariy jihatdan yetarli darajada hal qilinmagan. Shu bilan birgalikda, ushbu masala amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega, chunki davlat mulki davlat faoliyatini ta'minlovchi va uning funksiyalarini moliyalashtirishning, shuningdek, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy dasturlarini amalga oshirishning eng muhim manbayi hisoblanadi. Davlat tasarrufidagi mulk davlat ijtimoiy va iqtisodiy infrastrukturasieng eng muhim qismini tashkil etadi. Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan G'arb mamlakatlarida davlat sektori milliy iqtisodiyotning rivojlanishi vazifalariga muvofiq tarzda uzoq davr mobaynida vujudga kelgan institutsional muhitda shakllantirildi. MDH davlatlarida, shu jumladan, O'zbekistonda esa davlat sektori sobiq sovet davri tamoyillari asosida shakllangan edi va bu davlatlarning 1990-yillarda mustaqillikka erishganlaridan keyin sobiq sovet iqtisodiyotining transformatsiyasi davrida davlat tasarrufidagi mulkni xususiyashtirishda o'ziga xos qiyinchiliklar tug'dirdi.

Mustaqillikkacha bo'lgan davrda davlat mulki operativ boshqarish va xo'jalik yuritish ashyoviy huquqlari asosida boshqarilgan edi va bu huquqiy institutlar shu kungacha MDH davlatlarida, shu jumladan, O'zbekistonda o'z mavjudligini saqlab kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 70-moddasi unitar korxonalarining huquqiy maqomini belgilaydi. Fuqarolik kodeksining 71- va

72-moddalari esa xo'jalik yuritish va operativ boshqarish huquqining mazmun-mohiyatini ochib beradi.

Ma'lumki, so'nggi yillarda davlatimizda shu kungacha mavjud bo'lgan huquqiy baza bozorda yirik kompaniyalar tashkil etish va ularning faoliyatini tartibga solish uchun yetarli bo'lmaganligi sababli mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish, davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish, shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilishni tartibga soladigan bir qator qonun va qonunosti hujjatlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish to'g'risida"gi Qonuni (19.11.1991), "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonun (26.05.2000), "Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonun (06.12.2001), "Xo'jalik shirkatlari to'g'risida"gi Qonun (06.12.2001), "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonun (yangi tahrir, 24.04.2003), "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun (yangi tahrir, 06.05.2014), "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonun (yangi tahrir, 03.06.2015), "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun (25.12.2019) shular jumlasidandir.

Xulosa sifatida shuni ham ta'kidlash kerakki, ko'pgina investorlarning fikriga ko'ra, bugun O'zbekiston xalqaro investitsiyalar uchun MDHda ajoyib imkoniyat makoniga aylandi. O'zbekistonning investitsion qonunchiligi xalqaro investitsiya huquqining asosiy qoidalari, xususan, xorijiy investorlar huquqlarining kafolatlari, investorlar uchun muayyan imtiyozlar va boshqalarni o'zida mujassam etgan MDH mamlakatlari qonunchiligining ilg'orlaridan biridir. 1998-yilda qabul qilingan "Xorijiy investitsiyalar to'g'risida", "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi va "Chet ellik investorlar huquqlarini kafolatlash va himoya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qonunlarda birinchi marta MDHning aksariyat davlat-

larida qayd etilmagan bir qator yangiliklar belgilandi. O'zbekiston hukumati yaqinda tadbirkorlik va investitsiyalar to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish va tartibga solish zarurligini tan oldi, chunki xalqaro investitsiyalar bilan bog'liq milliy qonunchiligimizda hali ham ancha murakkab, bir-biriga zid va xalqaro huquq normalariga to'liq mos kelmaydigan qoidalar mavjud. Bu davlat korxonalarining xalqaro investitsiya huquqiy rejimidagi ahamiyatiga ham aloqador hisoblanadi.

2019-yil 25-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan imzolangan "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun xalqaro investitsiya sohasida qabul qilingan yuqoridagi normativ huquqiy hujjatlarning asosiy qoidalarini o'zida mujassam etgan yagona hujjat hisoblanadi. Ushbu Qonun

2020-yil yanvar oyida kuchga kiringanda, yuqorida tilga olingan qonunlarning barchasi o'z kuchini yo'qotdi. Yangi qonunlar xorijiy sarmoyadorlar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan O'zbekistonning ikki va ko'p tomonlama shartnomalarini, shu bilan birgalikda, davlat korxonalarining xalqaro investitsiyalar bilan bog'liq masalalarda qanday cheklovlarga yuz tutishi bilan mavjud muammolarni hal qilish to'g'risidagi xalqaro va Yevropa Ittifoqi qonunchiligi hamda amaliyotiga muvofiqlashtirilgan qonunlarni qamrab olishi kutilmoqda.

Bugungi O'zbekiston hukumati o'zining innovatsion va samarali ichki va tashqi siyosatini tasdiqladi. Bu siyosat nafaqat O'zbekiston, balki barqaror va farovon Markaziy Osiyoning investitsion muhitiga qiziqish bildirayotgan xorijiy hamkorlar uchun ham juda muhim hisoblanadi.

## REFERENCES

1. UNCTAD World Investment Report 2021, pp. 27-28.
2. The Law of the Republic of Uzbekistan "On Investments and Investment Activity" of 2019. Available at: <https://investmentpolicy.unctad.org/>.
3. The law of the Republic of Uzbekistan on SEZs adopted in February 2019. Available at: <https://www.lex.uz/docs/4821319/>.
4. Khalilova M.E, Khalilova Z.E. Attracting foreign investment into Uzbekistan: challenges and prospects. Boston, USA, 2021, April 30, pp. 68-77. Available at: <https://scientific-conference.com/h/sborniki/yuridicheskie-nauki2/2399-attracting-foreign-inves.html/>.
5. Khalilova M.E. Development of corporate governance in state-owned enterprises in Uzbekistan. 2021, December, pp. 8-14. Available at: <https://scientific-conference.com/images/PDF/2021/21/development-of-corporate.pdf/>.
6. Hormats R. Ensuring a Sound Basis for Global Competition: Competitive Neutrality, DIPNOTE-US Department of State Official Blog. 2011, May. Available at: <https://blogs.state.gov/stories/2011/05/06/ensuring-soundbasisglobal-competition-competitive-neutrality/> (accessed 14.10.2016).
7. Reed D. Corporate governance reforms in developing countries. *Bus Ethics*, 2002, no. 37 (3), pp. 223-247.
8. Trans-Pacific Partnership (TPP) Agreement. 2006, February 4.
9. Lu W. State-owned enterprises in international investment law regime. Liverpool, 2017, p. 66.

10. The Strategy for the management and reform of state-owned enterprises for 2021–2025 approved by the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated March 2, 2020, no. PF-5953.
11. UNCTAD. The Protection of National Security in IIAs: UNCTAD Series on International Investment Policies for Development. *UN Publication*, 2009, pp. 30-2. UNCTAD, WIR 2016.
12. Ripinsky S. Global Economic Crisis and the Danger of Protectionism: Does International Law Help? *Amsterdam Law Forum*, 2009, November, no. 1 (3), pp. 9-14. Available at: <https://amsterdamlawforum.org/>.
13. Khalilova Z.E. Practice of commercial arbitration and recognition and enforcement of foreign arbitral awards concerning disputes in Uzbekistan: A Comparison with Germany. Doctor's degree Dissertation. 2020. DOI: 10.26092/elib/333/.
14. Khalilova M.E. The role of state-owned enterprises in international investment law regime. 2021, December, pp.14-19. Available at: <https://scientific-conference.com/>.
15. Khalilova Z.E. History and development of arbitration in Uzbekistan. 2021, December, pp. 19-32. Available at: <https://scientific-conference.com/>.
16. US-Argentina BIT 1991, Article XI.
17. China-New Zealand BIT 1988, Article XI.
18. Senegal-US BIT 1983, Article I.
19. China-India BIT 2006, Article XIV.
20. Canada-Peru BIT 2006, Article X (1); Canada-Czech Republic BIT 2009, Article IX (1); Canada-Tanzania BIT 2013, Article 17 (1).
21. Australia-Japan EPA 2014, Article 14.15 (d), China-Korea FTA 2015, Article 9.8
22. Protocol of the China-Japan BIT 1988.
23. US- Panama BIT 1982.
24. BLEU- China BIT 2005, Article IV.
25. Protocol of the China-Germany BIT 2003.
26. Austria-Mexico BIT 1998, Article 19.
27. India-UK BIT 1994, Article XI (2)
28. Azerbaijan-US BIT 1997, Article XIV (1)
29. Australia-China FTA 2015, Article 16.3; GATT 1994 Article XXI.